



**TOSHKENT DAVLAT
AGRAR UNIVERSITETI**

№4. [4]. 2025

AGROBIZNES, FAN VA TEKNOLOGIYALAR

**АГРОБИЗНЕС, НАУКА
И ТЕХНОЛОГИИ**

**AGRIBUSINESS,
SCIENCE AND
TECHNOLOGY**



**ILMIY - AMALIY
ELEKTRON JURNAL**

№ 083688



ISSN: 3060-5245

TOSHKENT - 2025

MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

OBLOMURADOV NARZULLO NAIMOVICH

O‘ZBEKISTONDA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNING HUQUQIY-INSTITUTSIONAL ASOSLARI.....11

OBLOMURADOV NARZULLO NAIMOVICH

RESPUBLIKAMIZ IQTISODIYOTIGA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING NAZARIY ASOSLARI.....20

NASIRXODJAYEVA DILAFRUZ SABITXANOVNA, MUXIDDINOV BURXONIDDIN ISROIL O‘G‘LI

INSON KAPITALIGA INVESTITSIYALARNI YO‘NALTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI.....28

SODIQOV XAYRULLA SATTOROVICH, SODIQOVA GAVHAR XAYRULLA QIZI

PARRANDACHILIK KORXONALARI BOSHQARUV HISOBIDA MAHSULOT TANNARXINI ANIQLASHNING MUHIM USULLARI.....35

TADJIBAYEVA MUXLISA UMARBEOVNA

TIJORAT BANKLARIDA DAVLAT XARIDLARINI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH.....42

NAVRUZOVA GULRUKH UKTAMOVNA

CLASSIFICATION OF THE MAIN FORMS AND ORGANIZATIONAL STRUCTURES OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE, AND PRODUCTION INTEGRATION.....49

QUVONDIQOV OTABEK RAHIM O‘G‘LI

O‘ZBEKISTONDA SANOAT KOOPERATSIYASINI TASHKIL ETISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH.....53

NASIRXODJAYEVA DILAFRUZ SABITXANOVNA, XAKIMOV ABDOFATIH ABDUMUXTOR O‘G‘LI

BIZNES JARAYONLARINI OPTIMALLASHTIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....58

QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI

ШОКИРОВ АЛИШЕР ЖЎРАБОЕВИЧ

КУЧСИЗ ШЎРЛАНГАН МАЙДОНЛАРДА ОҚБОШ КАРАМ
ЕТИШТИРИШ.....332

АШИРОВ ЮСУФБОЙ РАХИМБЕРГАНОВИЧ

ВЎЗА НАВЛАРИНИ ЕТИШТИРИШДА СУВОРИШ ТАРТИБЛАРИНИНГ
ПАХТА ҲОСИЛДОРЛИГИГА ТАЪСИРИ.....343

ХУСАНБАЕВА ХУСНОРА САБИРЖАНОВНА

СОЯНИ ЁМВИРЛАТИБ СУВОРИШНИНГ ДОН ҲОСИЛДОРЛИГИГА
ТАЪСИРИ.....352

SATTOROV OBIDJON ODINAMAХMADOVICH, TURAYEVA GULANDON BOTIR QIZI

(LONICERA CAERULEA L) NING MORFO-BIOLOGIYASI VA KO‘CHATINI
YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI.....358

DAVRONOV BAXTIYOR XASANOVICH, OLIMOV BEHRUZ FAXRIDDIN O‘G‘LI

TAJRIBA GURUHIDAGI SOVLIQLARNI OZIQLANTIRISH.....364

DAVRONOV BAXTIYOR XASANOVICH, SUVANOVA GULSHODA NAZAR QIZI

TAJRIBA GURUHIDAGI BUQACHALARNING KLINIK
KO‘RSATKICHLARI.....368

ASKAROV KAMOLIDDIN ABDUGANIYEVICH, YULDASHOVA MUATTARXON PULATOVNA, DJORABAYEVA MAQSADOY ANVARJON QIZI

OG‘IR METALLAR BILAN IFLOSLANGAN SUG‘ORILADIGAN O‘TLOQI SOZ
TUPROQLARNING EKOLOGIK VA BIOLOGIK XUSUSIYATLARI.....373

KUYLIYEV ANVAR XAYDAROVICH, AZIZOV AKTAM SHARIPOVICH

SULI DONINING OZUQAVIYLIK XUSUSIYATI.....378

IBRAGIMOV BAHODIR YUSUPALIYEVICH, AXMEDOVA MUXLISA ABDUVALI QIZI

KUZGI BUG‘DOYDA QO‘LLANILGAN ZOVUR VA ARIQ TUPROQLARI,
KOMPOST ME‘YORLARINI MAKKAJO‘XORINING O‘SISHI, RIVOJLANISHI
VA HOSILDORLIGIDA SO‘NGGI TA‘SIRI.....382

**(LONICERA CAERULEA L) NING MORFO-BIOLOGIYASI VA
KO‘CHATINI YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI****SATTOROV OBIDJON ODINAMAXMADOVICH**

Toshkent davlat agrar universiteti
Mevachilik va uzumchilik kafedrası dotsenti,
qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: obidjon_sattorov@mail.ru

TURAYEVA GULANDON BOTIR QIZI

Toshkent davlat agrar universiteti
Mevachilik va uzumchilik kafedrası
06.01.07 – Mevachilik ixtisosligi tayanch doktoranti

E-mail: turayevagulandon1995@gmail.com

Annotatsiya. *Lonicera caerulea* L. o‘simligining morfo-biologik va agrotexnik xususiyatlari chuqur tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, mazkur o‘simlik erta bahorda hosilga kiruvchi, sovuqqa va kasalliklarga chidamli, qisqa vegetatsiya davriga ega bo‘lgan mevali buta hisoblanadi. Uning mevalari antotsianinlar (800–1300 mg/100 g), askorbin kislotasi (30–186 mg/100 g), P-aktiv birikmalar (350–650 mg/100 g) hamda organik kislotalar va shakar moddalarga boyligi bilan ajralib turadi. Xushbo‘y uchqatning fenologik fazalari, gullash biologiyasi, changlanish mexanizmi va yangi seleksiya navlarining agrobiologik ko‘rsatkichlari Rossiya seleksiya tajribalari asosida o‘rganilgan. Mazkur o‘simlik mevalarining biologik faol moddalar tarkibi va ekologik moslashuvchanligi tufayli uni oziq-ovqat, farmatsevtika va kosmetika sanoatida ishlatish imkoniyati mavjudligi isbotlangan. Shuningdek, xushbo‘y uchqat intensiv bog‘dorchilikda istiqbolli va eksport salohiyatiga ega ekin sifatida ilmiy asoslangan tavsiyalar bilan baholangan.

Kalit so‘zlar: *Lonicera caerulea* L, Xushbo‘y uchqat, vegetatsiya, hosil, P-faol moddalar, funksional mevalar, biologik faol modda, antioksidant, askorbin kislotasi, ko‘chat, meva.

Аннотация. Глубоко проанализированы морфо-биологические и агротехнические особенности *Lonicera caerulea* L. Согласно результатам исследований, это растение является фруктовым кустарником, который начинает плодоносить ранней весной, устойчив к холоду и болезням, имеет короткий вегетационный период. Его плоды отличаются богатством антоцианинов (800-1300 мг/100 г), аскорбиновой кислоты (30-186 мг/100 г), P-активных соединений (350-650 мг/100 г), а также органических кислот и сахаров. На основе российских селекционных опытов изучены фенологические фазы, биология цветения, механизм опыления и агrobiологические показатели новых селекционных сортов. Доказано, что плоды этого растения могут быть использованы в пищевой, фармацевтической и косметической промышленности благодаря составу биологически активных веществ и

экологической гибкости. Также, ароматный шавель как перспективная и экспортоориентированная культура в интенсивном садоводстве имеет научно обоснованные рекомендации.

Ключевые слова: *Lonicera caerulea* L, Ароматный шавель, вегетация, урожай, Р-активные вещества, функциональные фрукты, биологически активное вещество, антиоксидант, аскорбиновая кислота, рассада, фрукт.

Abstract. The morpho-biological and agrotechnical properties of the *Lonicera caerulea* L. plant were thoroughly analyzed. According to the research results, this plant is a fruiting shrub that bears fruit in early spring, is resistant to cold and diseases, and has a short growing season. Its fruits are distinguished by their richness in anthocyanins (800-1300 mg/100 g), ascorbic acid (30-186 mg/100 g), P-active compounds (350-650 mg/100 g), as well as organic acids and sugars. Phenological phases, flowering biology, pollination mechanism, and agrobiological indicators of new breeding varieties were studied based on Russian breeding experiments. Due to the composition of biologically active substances and environmental adaptability of the fruits of this plant, the possibility of its use in the food, pharmaceutical, and cosmetic industries has been proven. Also, aromatic honeysuckle is recommended as a promising and export-oriented crop in intensive horticulture.

Keywords: *Lonicera caerulea* L, Aromatic honeysuckle, vegetation, yield, P-active substances, functional fruits, biologically active substance, antioxidant, ascorbic acid, seedling, fruit.

KIRISH

So‘nggi o‘n yilliklarda, parhez odatlari inson salomatligiga ta’sir ko‘rsatishi haqida tobora ko‘proq dalillar to‘planmoqda. Yuqori sifatli ovqatlanish yoki sog‘lom ovqatlanish asosidagi parhezga doimiy rioya qilish kasallik xavfi va umumiy o‘lim darajasi bilan salbiy bog‘liqlikda ekanligi aniqlangan. Kundalik ovqatlanishda inson salomatligining asosi sifatida meva va sabzavotlar, ayniqsa to‘q-yashil bargli sabzavotlar hamda to‘q rangli rezavorlar tananing gomeostazini saqlashda muhim rol o‘ynaydi. O‘zining hushtamligi, funksional va iste’molga yaroqlilik xususiyatlari tufayli, rezavorlar yetishtirish maydoni va bozordagi talab so‘nggi 20 yil ichida jadal rivojlanib, butun dunyo bo‘ylab mashhurlikka erishdi. Hozirgi bozorda yaxshi tanilgan to‘q rangli rezavorlar turlariga *Acanthopanax sessiliflorus*, tut (mulberry), blue honeysuckle, qora smrodina (currant), xitoycha mitti gilos (Chinese dwarf cherry), golubika (blueberry), malina (raspberry), qora aronia (chokeberry), bulut rezavori (cloudberry), chernika (bilberry), buzina (elderberry) kiradi. Xushbo‘y uchqat (*Lonicera caerulea* L.) Caprifoliaceae oilasiga mansub o‘simlikdir. Shu bilan birga, *Lonicera* (L.) *caerulea* - to‘liq tabiiy va iste’mol qilinadigan rezavor meva (Haskap, blue honebey, honeyberry, honeysuckle kabi nomlar bilan ham tanilgan bo‘lib o‘zining a’lo xususiyatlari bilan odamlar e’tiboriga tushgan va “uchinchi avlod kichik rezavorlar shohi” degan sharaflil nomga ega bo‘lgan.

TADQIQOT USLUBLARI

Ushbu tadqiqotda (*Lonicera caerulea* L.) o'simligining morfo-biologik xususiyatlari, navlar xilma-xilligi, tarqalish areali, hosildorligi, biokimyoviy tarkibi va agrotexnik xususiyatlarini o'rganishda qator ilmiy usullar qo'llanildi.

O'simlikning vegetatsiya davridagi rivojlanish bosqichlari (gullash, meva hosil qilishi, pishish muddati) haqidagi ma'lumotlar Maslennikov (2023) va Sabitov (2022) ishlari asosida tizimlashtirildi. Bu usul (*Lonicera caerulea* L.)ning agroiklim sharoitlariga moslashuvchanligini baholash imkonini berdi. Kanada va Rossiya tajribasiga asoslangan holda ko'chat ekish sxemasi, sug'orish tartibi, o'g'itlash me'yorlari va parvarish texnologiyasi bo'yicha ilg'or tajribalar (Bors, 2021; Sabitov, 2022) tahlil qilinib, ularning O'zbekiston sharoitiga mos variantlari ishlab chiqiladi.

TADQIQOT NATIJALARI

L. caerulea, og'ir iqlim sharoitlarida paydo bo'lgan mustaqil mevali o'simlik guruhi bo'lib, u Linney (Linnaeus) davridan oldingi botaniklar tomonidan aniqlangan. Bu o'simlik haqida dunyo birinchi bor 1583-yilda Cruise tomonidan chizilgan xushbo'y uchqat mevasining rasmi orqali xabardor bo'lgan. 2021 yilda ta'kidlaganidek, keyinchalik tadqiqotchilar *Lonicera caerulea* turini Shimoliy yarimshardagi Evrosiyodan olib kelib, XVII asr o'rtalarida uni Osiyo, Shimoliy Amerika va Yevropada keng miqyosda yetishtira boshlashdi. XIX asr boshida xushbo'y uchqat (blue honeysuckle) *Lonicera* kenja oilasi va *L. caerulea* turkumiga rasman kiritildi. (*Lonicera caerulea* L.) – Caprifoliaceae oilasiga mansub, sovuqqa chidamli, uzoq umr ko'radigan va meva beruvchi buta bo'lib, asosan Sibir, Uzoq Sharq, Yaponiya (Xokkaydo) va Shimoliy Xitoy hududlarida yovvoyi holatda uchraydi. *L. caerulea* turlarining asosiy genetik markazlari Rossiya, Xitoy va Yaponiyaga to'g'ri keladi. Mevalarning morfologik tahlili asosida ularning diploid yoki tetraploid shaklda bo'lishi aniqlangan. Ko'p navlar *L. caerulea* var. *kamtschatica*, *L. caerulea* var. *edulis*, *L. caerulea* var. *emphylocalyx* kabi turlarning tabiiy yoki sun'iy duragaylashgan shakllaridir.

Hozirda ushbu o'simlik Yaponiyada, Rossiyada, Kanadada, Polshada, Chexiyada, Slovakiyada, Avstriyada va boshqa mamlakatlarda yetishtirilmogda. Bu uzoq umr ko'radigan, meva beruvchi buta bo'lib, uning vatani uzoq Sibir va shimoli-sharqiy Osiyodir. Uning tabiiy yashash joylari daryo bo'yidagi nam hududlar, botqoqlar hamda baland tog'lar hisoblanadi. Ushbu o'simlik haqida ilk ma'lumotlar XVII asrga to'g'ri keladi, madaniylashtirish bo'yicha dastlabki urinishlar esa XX asr boshlarida Rossiyada boshlangan. 1950-yillar atrofida Rossiyada yuqori hosildor, yirik va shirin mevalarga ega, mexanik yig'ishga mos navlarni (ya'ni mevalarning bir vaqtda pishishi) yaratish bo'yicha ishlar jadallashdi. Xuddi shunday ishlar XX asr oxirida Kanadada va Yevropaning bir nechta davlatlarida (Polsha, Chexiya, Litva, Finlyandiya va Slovakiya) boshlandi. Hozirda keng tarqalgan Kanada navlari *L. caerulea* var. *kamtschatica* bilan Kanada navlaridan biri *Lonicera kamtschatica* var. *villosa* va Yaponiyaning (Xokkaydo) *L. caerulea* var. *emphylocalyx* navlari o'rtasidagi duragaylashdan olingan. Polsha navlari esa *L. caerulea* var. *kamtschatica* va *L. caerulea*

var. *edulis* oʻrtasidagi duragaylash natijasidir. Aynan shu yuqorida tilga olingan navlar koʻk smorodina yoki koʻk qaragʻayga oʻxshash mazali, xushboʻy, shirin-nordon mevalar beradi.

Biroq, *Lonicera altaica* va *Lonicera pallasi* kabi boshqa navlar bilan gibridlashtirilgan butalar achchiqroq va nordonroq mevalar beradi. Bu achchiq taʼm asosan iridoid glikozidlar va aromatik hamda limon kislotasi efirlari miqdorining yuqoriligi bilan bogʻliq. Butaning balandligi 2 metrgacha, eni esa 1.5–2 metr boʻlishi mumkin. Gullari och sariq, asalarilar uchun jozibador, nozik va yoqimli hidga ega.



1-rasm. Xushboʻy uchqat oʻsimligining guli va mevalari

Buta barglar bilan bir vaqtda gullaydi. Kanadada (Saskaton viloyatida) xushboʻy uchqat may oyining boshlarida gullay boshlaydi, Polshada esa odatda aprel oxirida gullaydi. Biroq gullash vaqti asosan iqlim sharoitlari, ayniqsa haroratga bogʻliq boʻladi. Shunga koʻra navlarning turli yillarda gullashida hatto 2 haftadan koʻproq farq boʻlishi mumkinligi isbotlangan.

Yana bir muhim omil - navning oʻziga xosligidir: navga qarab gullash muddati 7 kundan 15 kungacha davom etadi. Bu oʻsimlik oʻz-oʻzini changlatmaydi, shuning uchun meva hosil boʻlishi uchun uning yonida bir vaqtda gullaydigan changlatuvchi nav boʻlishi kerak. Bir xil navlarda asal meva butasi ham meva beradi, lekin hosili kamroq boʻladi.

Lonicera caerulea ekilganidan keyingi ikkinchi yildan meva bera boshlaydi, toʻliq hosil esa odatda 8–15 yil ichida olinadi va bu davrda har bir butadan 3–5 kg meva yigʻish mumkin. Mevalari goʻshtli, choʻzilgan shaklda boʻlib, koʻk moviy rangga ega va tashqi tomoni mum gʻubor bilan qoplangan bundan tashqari, meva tarkibida taxminan 20 ta mayda urugʻ boʻladi, lekin ular yeganda deyarli sezilmaydi. Mevalarning ogʻirligi 0.3 g dan 3.8 g gacha, uzunligi esa 2 dan 3 sm gacha boʻlishi mumkin. Bu koʻrsatkichlar navga va iqlim sharoitlariga qarab oʻzgaradi. Mevalar taʼmi



shirin-nordon, ba'zan biroz achchiq bo'lishi mumkin *Lonicera caerulea* uzoq umr ko'radigan o'simlik bo'lib, 30 yilgacha meva bera oladi. 20–25 yillik butalarda meva hosildorligi pasayishi yoki butaning qurib qolishi mumkin, biroq budash, ya'ni eski novdalarni kesib tashlash kabi agrotexnik tadbirlar yordamida o'simlikni yangilash va yana hosil olish mumkin. Bu o'simlik soyada ham o'sishi mumkin, lekin maksimal hosil olish uchun quyoshli joylarda yetishtirish tavsiya etiladi.

Bu holat golubika (blueberry) uchun xos emas. *Lonicera caerulea* tuproqqa nisbatan kamtalab o'simlik bo'lib, tuproqning keng pH diapazoniga, ya'ni 5.5 dan 8.0 gacha bo'lgan oraliqda yaxshi o'sadi. U qumli va loyli tuproqlarda, shuningdek, torfli va bir oz kislotali tuproqlarda ham o'sishi mumkin

Zararkunandalar bilan deyarli zararlanmaydi, shu sababli zamburug' kasalliklari va boshqa patogenlarga qarshi alohida himoya choralari talab etilmaydi. *Lonicera caerulea* juda yuqori sovuqqa chidamlilikka ega - butalar -40°C gacha, guli esa -8°C gacha bo'lgan haroratga bardosh bera oladi. Shuning uchun ham Markaziy va Shimoliy Yevropa, Kanada hamda AQSh iqlimi bu o'simlikni yetishtirish uchun juda mos keladi.

Meva tarkibida oson hazm bo'ladigan shakarlar mavjud: glyukoza (54%), fruktoza (26%), galaktoza (5,3%), saxaroza (2,3%). Shuningdek, dietik komponentlar – sorbit (15%) va inozit (4%), organik kislotalar mavjud. Xushbo'y uchqat mevalari makro va mikroelementlarga ham boy. Kaliy miqdori qora smorodina, malinaga nisbatan ikki baravar ko'p bo'lib, faqat lingonberry dan kam. Natriy (21 mg/100 g) miqdori bo'yicha u barcha yovvoyi mevalardan ustun. Mevalarda fosfor (19 mg/100 g), temir (0,8 mg/100 g), marganes, yod, mis, kremniy mavjud.

Lonicera caerulea urug'dan, ildiz bachkisidan, yog'ochlashgan yoki yashil qalamchalar orqali ko'paytiriladi. Nav va elita shakllari faqat vegetativ usulda ko'paytiriladi. Ko'pchilik tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, yashil qalamchadan ko'paytirishning asosiy usullaridan biridir. Ma'lum bo'lishicha, bu usul o'simlikning yuqori ildiz chiqarish qobiliyatiga ega ekanini tasdiqlaydi: turli navlarda yashil qalamlarning ildiz chiqarish darajasi 67–100% oralig'ida bo'lishi aniqlangan. Qalamcha tayyorlash vaqti har yili ob-havoga bog'liq bo'lib, mintaqalarga qarab farq qiladi. Ko'pchilik mualliflar fikricha, qalamcha olish uchun eng yaxshi vaqt – kurtaklar o'sishi tugagach, yosh yashil po'stloq hali po'kaklashmagan davrdir. Bu davr ilk pishgan mevalar paydo bo'lishiga to'g'ri keladi. Ukraina Mevachilik instituti ma'lumotiga ko'ra, yashil qalamcha uchun optimal vaqt – 5°C dan yuqori bo'lgan samarali haroratlar yig'indisi $400\text{--}500^{\circ}\text{C}$ ga yetgan davrdir. Qalamchalar bulutli havoda, yoki quyoshli kunda tongda yoki kechqurun o'tkaziladi. Onalik o'simlikdan butun bir yillik shox sekator yordamida kesilib, oldindan tayyorlangan paketlarga joylanadi. Qalamchalar uzunligi 20 sm gacha, diametri esa 0,2 sm dan kam bo'lmasligi kerak. Kalta shoxlardan 10–15 sm uzunlikda, 2–3 kurtakli qalamchalar tayyorlanadi. Yuqori qismdan 3–5 mm balandlikda to'g'ri kesik, pastki qismdan esa 45° burchak ostida, kurtakdan 1,5 sm pastda qiy kesik qilinadi. Pastki barglar olib tashlanadi, faqat yuqori juft barglar qoldiriladi. Qalamlar ekishdan oldin ildiz chiqaruvchi stimulyatorlar

bilan ishlanadi. Navga qarab, uchki qalamlarning ildiz chiqarish ko'rsatkichi 90–96%, pastki qismdan olingan qalamlarniki esa 69–87% ni tashkil qiladi

XULOSA

Yuqoridagi tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, *Lonicera caerulea* L. o'simligi o'zining yuqori biologik va agrotexnik xususiyatlari bilan ahamiyatli mevali buta hisoblanadi. Ushbu o'simlik sovuqqa chidamliligi, uzoq umr ko'rishi va ekologik moslashuvchanligi bilan ajralib turadi, hosildorligi yuqori bo'lib, mevalari biologik faol moddalarga boy va sog'liq uchun foydali, ko'chatlar ikkinchi yildan boshlab meva bera boshlaydi va 30 yilgacha hosil berish qobiliyatiga ega hisoblanadi. Navlarga qarab agrotexnika (ekish sxemasi, changlanish, gullash muddati)da farqlar mavjud bo'lib, bu jihatlar yetishtirish samaradorligiga bevosita ta'sir qiladi. Yaxshi parvarish qilingan butalar 3–5 kg gacha meva beradi, bu esa sanoat miqyosida yetishtirish uchun ham qulaylik yaratadi. Shuningdek, mevalarning tarkibi, ta'mi, shakli va pishish muddati navlarga qarab turlicha bo'lib, bu nav tanlashda ehtiyotkorlik bilan yondashishni talab qiladi. Boshqa iqlim zonalarida olib borilgan ilg'or tajribalarni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish orqali *Lonicera caerulea* yetishtirishni kengaytirish, yangi navlar sinovini o'tkazish va seleksiya ishlarini rivojlantirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Celli, G., Ghanem, A., & Brooks, M. S. (2014). Bioactive compounds in berries: A review. *Food Research International*, 65, 497–506. <https://doi.org/10.1016/j.foodres.2014.09.031>.
2. European Food Safety Authority (EFSA). (2018). Safety of blue honeysuckle berries (*Lonicera caerulea* L.) as a novel food. *EFSA Journal*, 16(8), e05340. <https://doi.org/10.2903/j.efsa.2018.5340>.
3. Holubec, V., Smolikova, G., & Hajkova, P. (2019). Genetic resources of *Lonicera caerulea* and their utilization. *Genetic Resources and Crop Evolution*, 66, 173–188.
4. Kim, H., Kim, J. H., & Giovannucci, E. (2021). Plant-based diets and risk of chronic diseases: A review. *Nutrients*, 13(3), 848. <https://doi.org/10.3390/nu13030848>.
5. Liu, X., Lv, C., & Fan, J. (2021). Effects of plant-based diets on health outcomes: A systematic review. *Journal of Nutrition & Health*, 10(2), 105–115.
6. Rehder, A. (1903). Synopsis of the genus *Lonicera*. *Botanical Gazette*, 36(1), 1–18. <https://doi.org/10.1086/328356>.
7. Rupasinghe, H. P. V., Yu, L. J., Bhullar, K. S., & Bors, B. (2012). Short communication: Haskap (*Lonicera caerulea*): A new berry crop with high antioxidant capacity. *Canadian Journal of Plant Science*, 92(7), 1311–1317. <https://doi.org/10.4141/cjps2012-004>.